

VOLUME-1, ISSUE-6

Atoqli akademik

O'zMU tayanch doktoranti

Dilruxjon Abdilakimov

Annotatsiya

Ushbu maqolada adabiyotshunosh olim, akademik Naim Karimovning hayot yo'li, ijodiy faoliyati haqida so'z yuritilgan. Maqolada olimning zahmatli mehnat faoliyati, ilmiy faoliyatining ilk davrlaridan umrining so'ngigacha bo'lgan davri qamrab olingan.

Anatation

This article talks about the life path and creative activity of literary scholar, academician Naim Karimov. The article covers the laborious work of the scientist, from the beginning of his scientific career to the end of his life

Абстрактный

В данной статье рассказывается о жизненном пути и творческой деятельности литературоведа, академика Наима Каримова. В статье освещен кропотливый труд ученого от начала его научной карьеры до конца жизни.

Kalit so'zlar: jadid adabiyoti, jadidchilik, munaqqid, Naim Karimov, munaqqid, adabiy tanqid, matnshunos, adabiyotshunos.

Key words: modern literature, modernism, critic, Naim Karimov, critic, literary criticism, textologist, literary critic.

Ключевые слова: современная литература, модернизм, критик, Наим Каримов, критик, литературоведение, текстолог, литературовед.

XX asr o'zbek adabiyoti yangi bir bosqichga ko'tarildi. Yangicha shakllar, yangi-yangi janrlar, yangi yo'nalishlar va yangicha ruh kasb etdi adabiyotimiz. Endi bu adabiyotni baholash uchun yangi adabiyotni chin ma'noda anglay oladigan adabiyotshunos va tanqidchilar kerak edi. O'zbek adabiy tanqidchili ana shunday talablarga labbay deya javob bera oldi. Bugungi kunda o'zbek adabiy tanqidchiligida o'z uslubini yarata olgan, tanqidchilik maktabiga asos solgan zabardast tanqidchilarimiz bir qancha. Shulardan biri hech shubhasiz Akademik Naim Karimovdir.

Yangi o'zbek adabiyotining har bir vakili ijodi bilan yaqin tanish bo'lgan, maqolalari, tadqiqotlari, monografiyalari dolzarb muammolarga bag'ishlangan, izlanuvchan, dadil fikrlari bilan el-u yurtga tanilib qolgan adabiyotshunoslar orasida o'zining teran nigohi ajralib turuvchi munaqqid Naim Karimovdir. Munaqqidning boy va rang-barang ilmiy merosi XX asrning ikkinchi yarmidan o'zbek adabiyoti va adabiy tanqidchiligi taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Naim Fatihovich Karimov 1932-yil 12-dekabrda Toshkentning Eski shaharidagi Kallaxona degan mahallasida ziyoli oilada tug'ildi. Otasi Fotih Karimiy fizika o'qituvchisi bo'lgan. U kishining akalari Obid Karimiy oliy o'quv yurtlariga matematikadan dars berardilar. Bo'lajak olimning oilasida ilmning kuchi, marifatning ahamiyati nihoyatda katta bo'lgan. O'zbekistan Respublikasi fan arbobi (1996).

U 1955-yilda SAGU (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) filologiya fakultetini tamomlagan. O'qishini aspiranturada davom ettirib, 1958 yil tamomladi. Aspiranturadan so'ng yosh olim O'zbek SSR FAning til va adabiyot institutiga ilmiy xodim bo'lib ishga kiradi, sal kam ellik yil shu darga olib brogan faoliyati davomida yetakchi ilmiy xodimlikdan bo'lim mudirigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tadi. 1993-yil Naim Karimovga filologiya fanlari doktori ilmiy darajasi taqdim etiladi, 1994-yil esa professorlik darajasi beriladi. Naim Karimovning

ilmiy faoliyati asosan, XX asr o'zbek adabiyotini, xususan, Cho'lpon, Fitrat, Hamza kabi jadidchi yozuvchilar ijodini o'rganish bilan bog'liq. Olim Oybek, G'.G'ulom, Hamid Olimjon, Hamzaning asarlari to'plamini tayyorlashga faol bel bog'laydi. Uning qalamiga "Hamid Olimjon" (1979), "Oybek" (1985), "Usmon Nosir", "Usmon Nosir hayotining so'nggi yillari" (1993-1994), "Cho'lpon"(2003), "Uch buyuk siymo", "Behbudiy", "Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida" kabi ilmiy-ommabop kitoblar tegishli. O'ndan ortiq kitoblar, yuzdan ziyod maqolalar yozgan, turli anjuman va simpoziumlarda ma'ruzalar o'qigan, yorqin ilmiy faoliyati uchun Beruniy nomidagi respublika davlat mukofotiga sazovor bo'ladi, professor va filologiya fanlari doktori unvonlariga loyiq topilgan. Bir so'z bilan aytganda, yarim asrlik ijodiy faoliyati davomida u o'zbek adabiyotining betakror namoyondalaridan biriga aylandi. XX asr o'zbek adabiyoti rivojini Naim Karimovsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ustozning bu sohadagi faoliyati haqida Ibrohim Haqqul: "Naim Karimov XX asr o'zbek adabiyotining mirishkor bog'boni desa mubolag'a bo'lmaydi. Mazkur davr adabiyot "bog'i"da qanday "daraxt"lar o'sib-ulg'aygani, ularning o'rni qayerda, hosildorligi qanday Naim Karimov bexato biladi"¹, – deganda mutlaqo haq edi. Ustozning tadqiqotlari, ilmiy maqolalari, ma'rifiy romanlari o'zbek adabiyoti va adabiyotshunosligining katta yutug'i bo'ldi. Fikrimizni O.Sharafiddinovning Naim Karimov ilmiy faoliyati haqidagi quyidagi fikri ham isbotlaydi: "XX asrning ikkinchi yarmidagi o'zbek adabiyotidagi rivojlanishni Naim Karimovsiz tasavvur qilib bo'lmaydi"². O'zbek adabiyotida Naim Karimovga notanish ijodkor, u bilmaydigan bironta asar bo'lmasa kerak. Akademik Izzat Sulton Naim Karimov va uning ijodi haqida quyidagi fikrlarni keltirgan: "Men adabiyotshunosligimizda butun bir asr adabiyotimizning manzarasini to'la tasavvur etib, uning har bir davri, har bir hodisasi haqida malakali ilmiy fikr ayta oladigan mutaxassis yetishganidan faxrlanaman. U bilan nafaqat men, ayni chog'da butun adabiyot ilmimiz faxrlansa arziydi"³. Izzat Sulton bu fikrlari shunchaki aytgan emas. Haqiqatan ham Naim Karimov adabiyotshunosligimiz uchun faxrlana oladigan tadqiqotlarni yuzaga chiqardi. XX asr o'zbek adabiyoti rivojini N.Karimovsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. U shu davrdagi o'zbek adabiyoti va uning yirik vakillari ijodini milliy g'oya mezonlari asosida o'rganish ishini birinchilardan bo'lib boshlab berdi. Uning ilmiy faoliyatida adabiyot hodisalarini tarixiy voqealar, badiiy asarni esa yozuvchi hayoti va ma'naviy-estetik olami bilan uzviy aloqada o'rganish ustuvorlik qiladi. Chunonchi, jadid adabiyoti, uning hur fikrli, adolatparvar vakillari Hamza, Fitrat, Cho'lpon va boshqalar ijodi haqidagi kitob, maqolalar muallifi.

Matnshunos sifatid Oybeknin 20, G'.G'ulomning 12, H.Olimjonning 10, Hamzaning 5 jildli to'la asarlarini tayyorlash va nashr etishda ishtirok etgan.

XX asr o'zbek tanqidi va adabiyotshunosligida bo'y ko'rsatgan yangilanishlar 50-yillarning oxirlari 60-yillarning avvalida Matyoqub Qo'shjonov, Ozod Sharafiddinov, Salohiddin Mamajonov, Laziz Qayumov, Naim Karimovlar ijodida yorqin namoyon bo'ladi. O'zbek tanqidchiligi va adabiyotshunosligi XX asrning uchunchi choragidan boshlab o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko'tarildi. Istiqloq arafalari, mustaqillik davriga kelib, metodologiya masalasida xalqaro mezonlarni egallash yo'liga o'tganini ko'rsatdi. Bu yangilanishlar ayniqsa Naim Karimov ilmiy merosida yaqqol ko'zga tashlanadi. U ijodkorning

¹ Хаққул И. Олимлик – нуқтадонлик ва саботдир // XX аср ўзбек адабиёти масалалари: Филология фанлари доктори, профессор Н.Ф.Каримов таваллудининг 80 йиллигига бағишланган илмий мақолалар тўплами – Тошкент: Фан, 2018. – Б. 32

² Назаров Б. Давр ва мунаққид // Ko'rsatilgan asar – B. 4

³ Назаров Б. Давр ва мунаққид // Ko'rsatilgan asar – B. 4

faqat badiyatini tahlil qilish bilan cheklanib qolmasdan tanqidchiligimiz ijodkor hayot yo'lini o'rganish tamoyilini ham olib kirdi.

Adabiyotshunos olim, fan arbobi, akademik Naim Karimov 2023-yil 17-sentyabrda 91 yoshida vafot etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ҳаққул И. Олимлик – нуқтадонлик ва саботдир // XX аср ўзбек адабиёти масалалари: Филология фанлари доктори, профессор Н.Ф.Каримов таваллудининг 80 йиллигига бағишланган илмий мақолалар тўплами – Тошкент: Фан, 2018. – Б. 280
2. Назаров Б. Давр ва мунаққид // Ко'rsatilgan asar – В. 145
3. Akademik Naim Karimov/Bibliografik ko'rsatkich – Т.: Mumtoz so'z. 2017. В. 183

